

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN”DA QUR’ON OYATLARI VA HADISLARNING BADIY-USLUBIY TALQINI

Ramazonova Malika Hodiyevna

Buxoro xalqaro universiteti 2- kurs magistranti.

inoyatillayevamashhura@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19054116>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijodiy merosida Qur’on g’oyalariining aks etishi va bu g’oyalar orqali shakllangan axloqiy tarbiya masalalari chuqur tahlil qilinadi. V asr Xuroson va Movarounnahr madaniy-ma’rifiy muhiti, islomiy-ma’rifiy an’analar va tasavvufiy qarashlar Navoiyning o’ziga xos ijodiy uslubini shakllantirgan omillar sifatida ko’rib chiqiladi.

Maqolada buyuk shoirning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-Qulub”, “Xamsat ul-mutahayyirin” risolasi “Sittai zaruriya” kabi asarlarida Qur’on oyatlariga bevosita va bilvosita murojaat qilinishi, islomiy qadriyatlarining badiiyan’naviy talqini, insonga xos ezgu fazilatlarining targ’ib etilishi hamda yosh avlod tarbiyasi chun zarur bo’lgan xulosa va ibratlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, Qur’on g’oyalari, axloqiy tarbiya, islomiy qadriyatlar, tasavvuf, “Mahbub ul-Qulub”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Sittai zaruriya”, sabr, shukr, halollik, didaktik meros, sharq dabiyyoti, ma’rifiy an’ana, tarbiyaviy salohiyat.

ARTISTIC-STYLISTIC INTERPRETATION OF QUR’AN VERSES AND HADITHS IN "KHAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN"

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the reflection of Quranic ideas in the creative heritage of Alisher Navoiy, as well as the issues of moral upbringing shaped by these ideas. It examines the factors that influenced Navoiy’s distinct creative style, including the cultural and educational environment of 15th-century Khorasan and Movarounnahr, Islamic enlightenment traditions, and Sufi perspectives. The article highlights both direct and indirect allusions to Quranic verses in such works by the great poet as Hayrat ul-abror and Mahbub ul-Qulub, Xamsat ul-mutahayyirin, Sittai zaruriya offering an artistic and spiritual interpretation of Islamic values, promoting noble human qualities, and analyzing the conclusions and lessons necessary for educating the younger generation.

Keywords: Alisher Navoiy, Quranic ideas, moral upbringing, Islamic values, Sufism, Mahbub ul-Qulub, Hayrat ul-abror, Xamsat ul-mutahayyirin, Sittai zaruriya patience, gratitude, honesty, didactic heritage, Eastern literature, educational tradition, educational potential.

Kirish

Alisher Navoiy ijodi sharq adabiyoti tarixida eng ko’p o’rganilgan va har jihatdan tadqiq tilgan meroslardan biri sanaladi. XX asrning birinchi yarmidan boshlab O’zbekiston, Eron, Afg’oniston, Turkiya, Rossiya va boshqa davlatlarda Navoiy asarlariga oid alohida ilmiy arkazlar, tadqiqot institutlari paydo bo’ldi. O’zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiy meros markazi shoir asarlarini mukammal holda nashr ilish, tarjima qilish va ilmiy sharhlash borasida bir qator ulkan ishlarni amalga oshirgan. Azkur markazda A. Qayumov, G. G’ulom, H. Hasanov, B. Valixojayev singari olimlarning Navoiyning turli asarlari, xususan, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarning badiiy xususiyatlari haqidagi tadqiqotlari nashr etilgan. Navoiy ijodining Qur’oniylar manbalar va tasavvufiy g’oyalar bilan bog’liqligi masalasi o’zgarishida ham keng ko’lamli izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, Shodmonov A., Karimov H., Aziza Shodmonova kabi olimlar Navoiy lirikasidagi islomiy ramzlar, Qur'on qissalariga shoralar va tasavvuf talqinlari, ularning shoir ijodiy uslubidagi o'rmini tahlil qilishga alohida tibor qaratishgan. Mutaxassislarning e'tirof etishicha, Navoiy asarlari Qur'on mazmuniga xos xulosa va hikmatlarni milliy ruhda, rang-barang badiiy tasvirlar orqali ifodalash bilan ajralib turadi. Ayniqsa, "Xamsat ul-mutahayyirin" risolasi ibratli hikoyalari va "Mahbub ul-Qulub" sarining pand-nasihatlari Qur'on g'oyalarining aniq poetik ko'rinishlari sifatida baholanadi.

Asosiy qism. Alisher Navoiy o'zbek va jahon adabiyoti tarixida tengsiz maqomga ega bo'lgan buyuk so'z san'atkori sifatida nafaqat turkiy tilda, balki fors tilida ham bebaho asarlar yaratgan. Uning forsiy merosi ichida "Devoni Foni" she'riy to'plamidan tashqari, "Xamsat ul-mutahayyirin" kabi nasriy asari ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, Navoiy turkiy tildagi asarlariga "Navoiy", forsiy tildagi asarlariga esa "Foni" taxallusi bilan imzo qo'ygan.

O'smirlik yillarida sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yod bilgan Navoiy o'n besh-o'n olti yoshlaridayoq ham turkiy, ham forsiyda irod qiladigan "ikki tili" shoir sifatida tanilgan. Uning forsiy nasriy merosi jumlasiga "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" va "Holoti Pahlavon Muhammad" risolalari kiradi. Bu asarlar "Majolis un-nafois" tazkirasining davomiday bo'lib, Navoiy davrining yirik namoyandalari hayotini o'rganishda eng qimmatli manbalardir. Muayyan bir tarixiy shaxs haqida bitilgan bu asarlar musulmon Sharqi adabiyotidagi an'anaviy manobqlarga aynan o'xshamaydi va shuning uchun ularni shartli ravishda "holot-manoqib" deb atash mumkin. "Xamsat ul-mutahayyirin" ("Hayratlanarli beshlik") risolasi Alisher Navoiy tomonidan 1494-yilda, ya'ni uning ustozlari va piri Abdurahmon Jomiy (1414–1492) vafoti munosabati bilan forsiy tilda yozilgan.¹ Bu asar xotira janrida yaratilgan bo'lib, Navoiyning Jomiy bilan bo'lgan munosabatlari, ularning ijodiy hamkorligi va ma'naviyaloqlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Asarning nomi Jomiyning Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida tahsil olgan davridagi besh taniqli talabaning laqabiga asoslangan bo'lib, shu bilan birga beshta sayyora — Utorid, Zuhra, Mirrix, Mushtariy va Zuhalg'a ham ishora qiladi.

Akademik N.Komilov ta'kidlaganidek, "Xamsat ul-mutahayyirin" adabiyotning xotira turiga oid bo'lsa-da, u o'zida manobqlik, tarjimaihollik va adabiy-tanqidiy xususiyatlarni mujassam etgan o'ziga xos janrdagi asardir.² Asarning tarkibiy jihatdan muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat bo'lishi uning ko'p qirrali mazmun-mohiyatidan dalolat beradi.

Muqaddimada Jomiyning tug'ilishi, nasl-nasabi, yosh chog'idayoq ilm va she'riyatga moyilligi, tasavvuf yo'liga kirishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Birinchi maqolatda Navoiy va Jomiy o'rtasida yuz bergan voqea-hodisalar haqida 16 hikoya keltirgan. Ularning har birida Jomiyning yuksak aql-zakovati, o'z yaqinlari va shogirdlariga samimiyligi, talabchona bo'lgani, hozirjavobligi, hazil-mutoyibaga moyilligi, ko'p masalalarda Navoiy bilan hamfikir bo'lgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikkinchi maqolatda Navoiy va Jomiyning o'zaro yozishmalari, uchinchi maqolatda esa Jomiyning 40 ta asari haqida so'z yuritiladi. Xotimada Jomiy vafoti va dafn marosimi tasvirlanadi hamda Navoiyning forsiy tilda yozgan marsiyasi to'liq keltiriladi.

Risolaning ilmiy ahamiyati shundaki, u XV asr Hirot adabiy muhitining eng qimmatli manbalaridan biri bo'lib, unda Qur'onikarim oyatlari, hadislar va tasavvufiy tushunchalar chuqur

¹Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 3–78.

²Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009. – B. 312–318.

badiiy talqin topgan. H.Karomatov fikricha, Navoiy asarlarida Qur'onoyatlarining iqtibos va talmeh san'atlari orqali singdirilishi forsiy adabiyotning eng yaxshi an'alarini davom ettiradi.³

Mazkur bo'limda biz ana shu forsiy asarda Qur'oniyl g'oyalarning qanday badiiy vositalar yordamida ifodalanganligi masalasini batafsil tahlil qilamiz.

Asarning boshlanishi an'anaviy islomiy tartibda — "Bismillohir-rahmonir-rohim" iborasi bilan ochiladi. Bu ibora Qur'onikarimning deyarli barcha suralarining boshida keluvchi formula bo'lib, "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan" degan ma'noni anglatadi. Navoiy bu iboradan so'ng hamd va sano ruboiysi keltiradi: "Ul olimi allomg'a yuz hamdu sano — Kim, Odam ila tuzdi chu bu dayri fano. Ilmig'a milk surmodi bir harf yano, Juz nukta 'subhonaka lo ilma lano'".

Bu ruboiyda Qur'onikarimning Baqara surasidagi 32-oyatga ishora mavjud: "Subhonaka lo ilma lano illo ma allamtano" — "Sen poksan! Biz faqat Sening o'rgatganingni bilamiz".⁴ Bu oyat Odam alayhissalomning Alloh huzurida barcha narsalarning nomlarini aytib bergandan so'ng farishtalarning tan olishi haqida so'zlaydi. Navoiy bu oyatni iqtibos san'ati orqali asarning boshida keltirish bilan bir nechta maqsadni ko'zlaydi: birinchidan, Allohning ilmining cheksizligini va insonning bu ilm oldidagi ojizligini ta'kidlaydi; ikkinchidan, Jomiy haqidagi risolasini Qur'oniylhikmat bilan ochib, asarning butun ruhiy-falsafiy asosini belgilaydi; uchinchidan, Odam ato qissasi orqali ilm va ma'rifatning ilohiy manbaga ega ekanligini ko'rsatadi.

I.Haqqulov ta'kidlaganidek, Navoiy ijodida Qur'onoyatlarining iqtibos qilinishi faqat diniy an'anaga rioya qilish emas, balki chuqur ma'rifiy maqsad tashiydi.⁵ Shoir Qur'onoyatini asar boshida keltirar ekan, o'quvchini ilmning ilohiy manbaga ega ekanligiga ishora qiladi va shu orqali o'z ustozl Jomiyning ilmiy maqomini ham ulug'laydi. Bu usul — ilmiy-adabiy asarni Qur'oniylhikmat bilan boshlash — Sharq mumtoz adabiyotidagi hamd an'anasining ajralmas qismidir. Navoiy hamd ruboiysidan so'ng na't ruboiysi ham keltiradi: "Yuz na't angakim, xulqi karim o'ldi fani, Ya'niki, karam koni rasuli madani, Mundoq dedi ilm ahlini aylarga g'ani, 'Man akroma oliman faqad akramani'".

Bu ruboiyda keltirilgan "Man akroma oliman faqad akramani" — "Kim olimni hurmat qilsa, meni hurmat qilgan bo'ladi" hadisi orqali Navoiy o'z ustozl Jomiyga bo'lgan hurmatini ifoda etadi va ilm ahlini e'zozlash islomiy an'ananing muhim qismi ekanligini ta'kidlaydi. R.Vohidov ta'kidlaganidek, Navoiy asarlarida hadislar nafaqat diniy dalil, balki axloqiy mezon va badiiy vosita sifatida ham qo'llaniladi.⁶ Shuningdek, asarning muqaddima qismida "Al-ulamo varasot ul-anbiyo" — "Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir" hadisi ham keltiriladi va bu hadis orqali Jomiyning maqomi ulug'lanadi.

1-jadval

"Xamsat ul-mutahayyirin"da keltirilgan Qur'onoyatlari va hadislarining joylashuvi

T/r	Oyat yoki hadis matni	Manbasi	Asardagi o'rni
1	Subhonaka lo ilma lano illo ma allamtano	Baqara surasi, 32-oyat	Muqaddima (hamd ruboiysi)
2	Man akroma oliman faqad akramani	Hadisi sharif	Muqaddima (na't ruboiysi)

³Karomatov H. O'zbek adabiyotida Qur'onmavzulari. — Toshkent: Fan, 1993. — B. 58–65.

⁴Qur'onikarim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. Tarjimon: Alouddin Mansur. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004.

⁵Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. — Toshkent: Fan, 1991. — B. 87–94.

⁶Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. — Buxoro: Buxoro universiteti, 2010. — B. 128–140.

3	Al-ulamo varasot ul-anbiyo	Hadisi sharif	Muqaddima
4	Allohu nurus-samovoti val-arz	Nur surasi, 35-oyat	Jomiy tavsifi
5	Qul hal yastavil-lazina ya‘lamun	Zumar surasi, 9-oyat	Jomiy ilmiy maqomi
6	Yuhibbuhum va yuhibbunahu	Moida surasi, 54-oyat	Muhabbat tavsifi
7	Kullu man alayho fon	Rohman surasi, 26-oyat	Xotima (marsiya)
8	Va yabqo vajhu Robbika zul-jaloli val-ikrom	Rohman surasi, 27-oyat	Xotima (marsiya)
9	Inna lillohi va inna ilayhi rojiun	Baqara surasi, 156-oyat	Xotima (Jomiy vafoti)
10	Robbiy zidni ilman	Toho surasi, 114-oyat	Ilm va ma‘rifat tavsifi

Asarning muqaddimasida Navoiy Jomiyning ilmiy salohiyatini ta‘riflaydi va uni Allohning nurini aks ettiruvchi zot sifatida tasvirlaydi. Bu tavsifda Qur‘ondagi “Allohu nurus-samovoti val-arz” — “Alloh osmonlar va yerning nuridir” (Nur surasi, 35-oyat) oyatiga ishora mavjud. Navoiy Jomiyning ilmiy kamolotini ilohiy nur bilan bog‘lab tasvirlaydi va bu tasvirda istiora san‘ati qo‘llanilgan bo‘lib, Jomiyning ilmi va ma‘rifati ilohiy nurning yer yuzidagi tajalliysi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Qur‘ondagi “Qul hal yastavil-lazina ya‘lamuna vallazina la ya‘lamun” — “Ayting: biladiganlar bilan bilmaganlar teng bo‘ladimi?” (Zumar surasi, 9-oyat) oyatining ma‘nosi Jomiyning ilmiy maqomini ta‘riflashda muhim o‘rin tutadi.

Navoiy ilmning ikki turini farqlaydi: ilmi zohiriy (tashqi ilmlar — fiqh, kalom, mantiq) va ilmi botiniy (ichki ilm — ma‘rifat, kashf, ilhom) va Jomiyning har ikkala sohada ham yetuk ekanligini ta‘kidlaydi.

Birinchi maqolatda Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi 16 hikoyada ilmiy munozaralar, noyob ijodiy suhbatlar va uchrashuvlar tasvirlanadi. Bu hikoyalarda Jomiyning so‘zlari va xatti-harakatlarini Navoiy Qur‘oniytushunchalar kontekstida tasvirlaydi. Masalan, ilm, hikmat va ma‘rifat tushunchalari Qur‘ondagi “Robbiy zidni ilman” — “Rabbim, ilmimni oshir” (Toho surasi, 114-oyat) oyati ruhida talqin qilinadi. Navoiy Jomiyning har bir so‘zida ilohiy hikmat izlarini ko‘rishga harakat qiladi. Hikoyalarda Jomiyning kamtarligi, odamlarga mehri, ilmiy masalalardagi chuqur bilimi va shoirona iqtidori alohida ta‘kidlanadi. N.Komilov ta‘kidlaganidek, bu hikoyalar XV asr Hirot adabiy muhitining eng yorqin sahifalaridan biridir.⁷

Ikkinchi maqolatda Navoiy va Jomiyning o‘zaro yozishmalari haqida ma‘lumot beriladi.

Bu ikki ulug‘ shaxs bevosita muloqot imkoniyati yo‘q vaqtlarda bir-birlariga uzluksiz xat yozib, hol-ahvol so‘rashib turishgan. Yozishmalar matnida ham Qur‘onoyatlari va hadislarga murojaat qilinadi.

Navoiy Jomiyga yozgan maktublarining birida “Innalloha yuhibbut-tavvobina” — “Alloh tavba qiluvchilarni sevadi” (Baqara surasi, 222-oyat) oyatini keltiradi va tavba hamda taqvo haqida fikr yuritadi. Bu nomalar goh nasrda, goh nazmda bitilgan bo‘lib, ularda ba‘zan o‘sha davrning muhim ijtimoiy-siyosiy muammolari yuzasidan ham fikr almashilgan. Shuningdek, Navoiy maktublarida o‘z she‘riy ijodi haqida ham Jomiyning fikrini so‘rab yozadi va Jomiyning javoblari orqali ikki buyuk zotning Qur‘oniyg‘oyalarga bo‘lgan chuqur e‘tiqodi namoyon bo‘ladi.

Uchinchi maqolatda Jomiy yozgan va turli adabiy janrlarga oid 40 asarning ro‘yxati keltiriladi.

⁷Komilov N. Adabiyot va uch buyuk zot // Sharq yulduzi. – 2001. – № 3. – B. 12–18.

Bu asarlarning bir qanchalarining yuzaga kelishida Navoiy sababchi bo'lgani aniq misollar bilan izohlab beriladi. Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasi, "Lavoyeh", "Ashi'a ul-lama'ot", "Sharhi ruboiyot", "Barhoriston" kabi asarlari haqida so'z yuritiladi. Bu asarlarning barchasi Qur'onoyatlari va hadislar talqiniga asoslangan bo'lib, Navoiy ularning mazmun-mohiyatini qisqacha sharhlaydi. Ayniqsa, Jomiyning "Tuhfat ul-ahror" va "Subhat ul-abror" masnaviylarida Qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini batafsil ko'rsatiladi.

Navoiy bu asarlarning yaratilishida o'zining ham ishtirok etganligi haqida faxr bilan so'zlaydi. Navoiy Jomiyning "Arba'iy" asarida qirqta hadisi nabaviyni forsiy nazm yo'li bilan tarjima qilganligini alohida qayd etadi va bu asarni keyinchalik o'zi turkiy tilga o'g'irganligini ta'kidlaydi. Jomiy solihona hayot uchun zarur, ammo sharhtalab bo'lgan hadislarni tushunish va yodlash oson bo'lsin uchunforschaga nazm yo'li bilan tarjima qilgan va asli bilan birgalikda bir kitobcha holiga keltirgan. Bu ma'lumot Navoiy va Jomiyning hadis ilmiga bo'lgan qiziqishlarining birgalikda rivojlanganligini ko'rsatadi.

"Xamsat ul-mutahayyirin"ning muhim qismlaridan biri "Tuhfat ul-afkor" qasidasining yaratilish tarixiga bag'ishlangan hikoya hisoblanadi. Navoiy yozishicha, 1476-yilda Amir Xusrav Dehlaviyning "Daryoi abror" va Jomiyning "Lujjat ul-asror" qasidalariga javoban "Tuhfat ul-afkor" qasidasini yozgan. Bu qasidaning yaratilish jarayonida Jomiyning bevosita ta'siri bo'lganligi ta'kidlanadi.

Qasidada faqr maqomi komillikning oliy namunasi sifatida talqin qilinadi va bu talqin Qur'ondagi "Ey odamlar! Sizlar Allohga muhtoj faqirlarsizlar" (Fotir surasi, 15-oyat) oyatiga asoslanadi. Jomiy Navoiyning bu qasidasini o'qib yuqori baholagan va o'z navbatida boshdan-oxirigacha muammo tariqida qasida yaratgan. Jomiy o'z "Barhoriston" asarida "Tuhfat ul-afkor"ni forsiy she'rning mumtoz namunasi sifatida alohida qayd etadi. Qasidaning "yigirmadan ortug'roq bayti muammo tariqi va istilohi bila" yozilganligi Jomiyi yanada ilhomlantirgan.

Shuningdek, asarda Navoiy va Jomiy o'rtasidagi she'riy muloqotning yana bir muhim namunasi keltiriladi. Navoiyning "Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki, Solmag'ay erding bori olamg'a g'avg'o koshki" matla'li turkiy g'azali el orasida shuhrat topib, hatto Husayn Boyqaro suhbatlarida ham o'qilgan. G'azal ovozi Jomiyga ham yetib, u forsiy tilda tatabbu' yozadi: "Didame didori on dildori ra'no koshki, Dida ravshan qardame z-on ro'yi zebo koshki".

So'ngra Husayn Boyqaro topshirig'i bilan Navoiy Jomiyning forsiy g'azaliga musaddas bog'laydi. Bu adabiy hodisa "Xamsat ul-mutahayyirin"da batafsil tasvirlanadi va Navoiy, Jomiy, Husayn Boyqaro o'rtasidagi ijodiy hamkorlikning yorqin namunasi sifatida qadrlanadi. Bu she'riy muloqotda ham Qur'oniy g'oyalar — ilohiy ishq, dildorning jamoli, dunyo foniyligidan najot istash kabi motivlar badiiy ifodalangan.

Asarning xotima qismida Jomiy vafoti va dafn marosimi tasvirlanadi. Bu qism butun asarning eng ta'sirchan bo'limidir. Navoiy ustoz vafoti haqida yozar ekan, Qur'ondagi "Kullu man alayho fon" — "Yer yuzidagi har bir narsa fonidir" (Rohman surasi, 26-oyat) va "Va yabqo vajhu Robbika zul-jaloli val-ikrom" — "Faqat ulug'vorlik va ikrom sohibi bo'lgan Rabbingning zoti boqiydir" (Rohman surasi, 27-oyat) oyatlariga murojaat qiladi.

Bu ikki oyat orqali Navoiy dunyoning foni va Allohning boqiy ekanligini ta'kidlaydi va shu orqali Jomiy vafotining fojialigi hamda uning ma'naviy merosining abadiy ekanligini ifodalaydi.

Shuningdek, "Inna lillohi va inna ilayhi rojiun" — "Albatta, biz Allohnkimiz va albatta,

Unga qaytamiz" (Baqara surasi, 156-oyat) iborasi keltiriladi. Navoiy bu iborani faqat an'anaviy tarzda qo'llamay, balki chuqur badiiy kontekstda tasvirlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, "Xamsat ul-mutahayyirin"dagi Qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini "Devoni Foni" va "Sittai zaruriya" qasidalaridagi talqinlardan muhim jihati bilan farqlanadi. Agar she'riy asarlarda Qur'oniy g'oyalar ko'proq poetik timsollar, badiiy san'atlar va majoziy ifodalar orqali singdirilgan bo'lsa, "Xamsat ul-mutahayyirin" nasriy asarida Qur'onoyatlari va hadislar ko'proq bevosita iqtibos qilingan va nasriy sharh bilan birga keltirilgan. Bu farq janriy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib, she'riy asarlarda badiiy ifoda ustuvorligi, nasriy asarlarda esa mazmuniy aniqlik muhimroq hisoblanadi.

Biroq ikkala holatda ham Navoiy Qur'oniy g'oyalarni o'z asarining g'oyaviy-mazmuniy asosiga aylantirgan. Masalan, "Devoni Foni" g'azallarida ishq, firoq, visol tushunchalari Qur'oniyramzlar orqali poetik talqin topgan bo'lsa, "Xamsat ul-mutahayyirin"da xuddi shu tushunchalar Navoiy va Jomiy o'rtasidagi real munosabatlar kontekstida nasriy badiiy tasvirda ifodalangan. "Sittai zaruriya" qasidalarida ilohiy tavhid, me'roj, faqr kabi mavzular yuksak she'riy saviyada yoritilgan bo'lsa, "Xamsat ul-mutahayyirin"da xuddi shu mavzular Jomiyning shaxsiyati va faoliyati kontekstida tahlil qilingan.

Bu qiyosiy tahlil Navoiyning forsiy merosidagi Qur'oniy g'oyalarning badiiy talqini yagona uslubiy tizimga ega ekanligini tasdiqlaydi. Navoiy she'riy va nasriy asarlarida Qur'oniy g'oyalarni turli badiiy shakllarda, ammo yagona g'oyaviy yo'nalishda ifodalagan va bu uning forsiy merosining barcha janrlarida Qur'oniy g'oyalarning mutanosib va izchil badiiy talqin topganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Komilov N. Adabiyot va uch buyuk zot // Sharq yulduzi. – 2001. – № 3. – B. 12–18.
2. Qur'onikarim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. Tarjimon: Alouddin Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 87–94.
4. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: Buxoro universiteti, 2010. – B. 128–140.
5. Karomatov H. O'zbek adabiyotida Qur'onmavzulari. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 58–65.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 3–78.
7. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009. – B. 312–318.
8. www.navoiy-encyclopaedia.uz
9. www.ziyonet.uz
10. www.natlib.uz
11. www.islamicstudies.info
12. www.quran.com
13. www.iranicaonline.org